



## AQLIY RIVOJLANISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Tag'onova G.B.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** aqli zaiflik, bilish faoliyati, yordamchi maktab, potologik buzilishlar.

**Ключевые слова:** умственная отсталость, когнитивные функции, вспомогательная школа, патологические расстройства.

**Key words:** mental retardation, cognitive activity, auxiliary school, pathological disorders.

**Резюме:**

Aqli zaif bolalarda bilish faoliyatining oliy shakllarini yaxshi rivojlanmaganligi fikrlashning yuzakiligi, nutqni sekin rivojlanishi va sifat jihatidan o'ziga xosligi, xatti-xarakatini so'z orqali nazorat qilishni izdan chiqishi xissiy-irodaviy sohani to'laonli emasligi kuzatiladi.

**Резюме:**

У умственно отсталых детей наблюдается недостаточное развитие высших форм познавательной деятельности, поверхностность мышления, медленное развитие и качественное своеобразие речи, нарушение контроля поведения через слово, неполноценность эмоционально-волевой сферы.

**Summary:**

Poor development of higher forms of cognitive activity in Mentally Retarded Children is observed in the superficiality of thinking, slow development of speech and qualitative specificity, the inability to trace the control of behavior through speech is not exhaustive of the hissiyo-volitional sphere.

Aqli zaiflik deganda me'yoriy ruhiy rivojlanishdan chetlashib, haqiqiy, aynan aqliy nuqsonlikka olib keluvchi holat tushuniladi. Bunday holat «aqli zaiflik» nomi bilan atala boshlandi. So'nggi yillarda aqli zaiflik mohiyatini tushuntirishda ma'lum ruhiy, kasalliklar emas, balki qobiliyatlarining rivojlanmasligi asosida kelib chiqadigan xulqning buzilishidir, deb ko'rsatish odat tusiga kirib qolmoqda. Shular asosida noto'g'ri holda «aqliy qoloqlik» tushunchasi kengaytirilib, unga pedagogik qarovsiz bolalar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, huquq-tartib normalarini buzuvchi bolalar ham kiritilinoqda.

Aqli zaiflikning mohiyatini nuqsonning moddiy asosi bilan bog'lab, bunga bosh miyaning organik buzilishini ko'rsatadilar. Boshqacha aytganda, aqli



zaiflikning moddiy asosi sifatida kasallangan bosh miya e'tirof etiladi. Bu kasallik natijasida bolaning bilish faoliyatlari keng ma'noda buzilib, aqliy rivojlanish tezligi, samaradorligi pasayadi.

Aqli zaif bolalar bosh miyasi chuqur zararlanganligi sababli barcha oliy asab faoliyatlari buzilgan bo'ladi. Patologik buzilishlar shartsiz reflekslarning hosil bo'lishida ham namoyon bo'ladi. Bu buzilishlar bosh miyaning qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarida ham o'z aksini topadi. Hatto ikki signal sistemalarining o'zaro aloqalarida buzilishlar ko'zga tashlanadi. Rus defektolog va psixologlaridan L.S.Vigotskiy, LV.Zankov, G.Ye.Suxareva, T.a.Vlasova, G.M.Dulnev, N.G.Morozova, S.Ya.Rubinshteyn, M.S.Pevzner, G.I.Rossolimo, V.G.Petrova, J.I.Namozboyeva, shuningdek, G'.B.Shoumarov, K.Q.Mamedov, P.M.Po'latova, V.S.Rahmonova va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, «aqli qoloq»likda ruhiy nuqson murakkab tuzilishga ega. Ularning ko'rsatishicha, bir tomondan, birlamchi nuqson ta'sirida oddiy aqliy jarayonlar buzilsa, ikkilamchi nuqson sifatida ruhiyatning oliy shakllari, xotira, xarakter belgilari buzilar ekan.

Oligofrenopedagogikaning maxsus markazida turadigan manba nuqsonning o'zi emas, balki u bilan bog'langan buzilgan ruhiy holatlardir. Shu bilan birga, biz aqli zaif deb bu holatning turg'unligini ham tushunamiz. Mana shu mezonning bor yoki yo'qligiga qarab aqli zaiflikni boshqa unga o'xshash turlardan farqlashimiz lozim. aqli zaiflikning asosiy belgilari: a) bosh miyada organik buzilishning mavjudligi; b) bilish faoliyatlarining umumiy, chuqur buzilganligi; d) bilish faoliyatlari buzilganligining turg'un xarakterdaligi.

Aqli zaif bolalar guruhiga quyidagi bolalar kirmaydi: a) aqliy rivojlanmaganlik bosh miyaning organik buzilishlari bilan bog'liq bo'lmagan pedagogik qarovsizlar; b) ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar; d) aqliy jihatdan saqlangan bo'lib, chuqur nutq kamchiliklari bo'lgan bolalar. amaliyotda ba'zan bosh miyasi zararlangan bolalarni aqli zaiflar qatoriga qo'sha olmaymiz. Bunday hollarda bosh miya zararlanishi bilish faoliyatining buzilishiga olib kelmaydi. Oligofreniyaning murakkablashmagan turida qo'pol ruhiy, jismoniy buzilishlar deyarli uchramaydi. Bunday bolalar, odatda, mehnatsevar, intizomli bo'ladilar, ularning nerv sistemalari turg'unidir. Biror ish bajarganda ular yetarli darajada diqqatlarini bir joyga yig'a oladilar. Hissiyotlari ham nisbatan saqlangan. Maktabda, oilada turli yumushlarga yordam beradilar, yordamchi maktab dastur materiallarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar.

aqliy zaiflikning chuqurligiga qarab oligofreniya darajaga ajratiladi: Har qaysi daraja haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Birmuncha yengil daraja bo'lib, oligofreniyaning eng ko'p tarqalgan turidir. Yordamchi maktabga bolalarni

saralash vaqtlarida asosan shu bolalar bilan ish olib boriladi. Yordamchi maktab o'quvchilarining asosiy qismini ham yengil darajadagi bolalar tashkil qiladi. Bu bolalarni saralash vaqtida ham ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinadi. Buning asosiy sababi shuki, aqliy nuqson u darajada chuqur emas. Bu bolalar umumlashtira oladilar. Bog'cha yoshi davrida primitiv, sodda mazmunli o'yinlarni tashkil qila oladi. Maktab yoshi davrida esa ma'lum muayyan holatlarni baholay oladi, amaliy masalalami yechishda to'g'ri ish tutadi. Nutqi asosan saqlangan bo'lib, mexanik xotirasi nisbatan yaxshi natijalar beradi. Bularning barchasi yordamchi maktab dasturi hajmidagi materiallarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi. Yengil darajadagi aqli zaif bolalarda yetarli harakatchanlik, ish qobiliyatlari saqlangan bo'ladi. Bu bolalarda nisbatan hissiyot-iroda sifatleri yaxshi saqlangani natijasida o'zlarini nazorat qilish imkoniyatlari mavjud. Yordamchi maktabning maxsus sharoitlari tufayli yengil darajadagi aqli zaif bolalar 9 yil davomida ommaviy maktablar boshlang'ich sinf hajmidagi o'quv materiallarini egallab, ma'lum ishlab chiqarish, kasb-hunar tayyorgarligini oladilar.

Qator ijobiy xislatlariga qaramay, ma'lum darajada aqliy rivojlanmaganlik bu bolalarga ham xosdir. Bu bolalarning tafakkurlari ko'rgazma-obraz mazmunini kasb etadi. Tushunchalarning shakllanishi juda qiyin amalga oshadi. Umumlashtirish, taqqoslash jarayonlari juda zaif kechadi. O'qilgan muayyan mazmunni qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar. Fanlarni to'g'ri idrok qila turib, ularning ichki bog'lanishlarini tushunmaydilar. Bunday xislatlar yengil darajadagi aqli zaif bolalar bilan mazmunli rasmlar, izchil voqealarni tasniflash tajribalari o'tkazilganda yaqqol ko'rinadi, hisoblash malakalari ham qiyin shakllanadi. Sonlar, suratli arifmetik belgilar mohiyatini yetarli tushunib yetmaydilar. Ular sodda masalalarning shartlarini dastlabki tushuntirishlarda bila olmaydilar. To'g'ri yozish malakalarini qiyinchilik bilan egallaydilar. Ularning nutqi sodda, grammatik tomoni buzilgan, tili chuchuk bo'lishi mumkin. So'zli tushuntirishlar muayyan holatlar bilan bog'liq bo'lmasa, materialni juda qiyin idrok etadilar. Debil bolalarning yetarli aqliy taraqqiy etmaganligi ular shaxsining shakllanmaganligi bilan birga qo'shib keladi. Bu xislat fikr yuritish va qarashlarning mustaqil emasligida, bilimga intilishlarning yetishmasligida, tashabbuskorlikning bo'shligida, mehnat faoliyatlarida namoyon bo'ladi.

O'rta darajadagi aqli zaiflik yengil darajadagi aqli zaiflikdan binnuncha og'ir darajadir. aqliy nuqsonning bu darajasida oligofreniyaning o'ziga xos xususiyatlari va namoyon bo'lishi binnuncha yaqqol ko'rinadi. Birinchi navbatda, bu muayyan holatlarda umumlashtira olmaslik, hatto oddiy tushunchalami hosil qila olmasligi bilan ajralib turadi. O'rta darajadagi aqli zaiflik bolalarning



mantiqiy fikrlash jarayonlari juda past darajada bo'ladi. O'qigan materialning mazmunini ilg'ab ololmaydilar. Yordamchi savollar orqaligina qisman mazmunini tushunishlari mumkin. Ko'rish va eshitish analizatorlari qabul qilgan axborotlarni tahlil qila olmasligi natijasida harflarni eslab qolishda qiynaladilar, o'xshash tovushlarni bir-birlariga aralashtirib yuboradilar. Kitobdagi matnlarni mexanik ravishda o'qib, mazmunini tushuntira olmaydilar. O'ngacha sanash, o'n ichida hisob-kitob qilishlari mumkin. Lekin ularda murakkab son haqidagi tushunchalar yo'q. Ularning so'z boyligi kam bo'lib, nutqi ifodasiz, jummalari qisqadir.

O'g'ir darajadagi aqli zaiflikda ular idrokida qo'pol rivojlanmaganlik ko'rinadi. atrof-muhitga bo'lgan munosabati mos emas. O'z shaxsini aniq bilmaydi. Ularning tafakkuri deyarli yo'q, ular o'zlariga qarab gapirilgan gapdan ko'ra mimika va yuz harakatlarini nisbatan ilg'ab oladilar. O'g'ir darajadagi aqli zaiflikda nutqi aqliy nuqson chuqurligiga bog'liq. Ular nutqi ma'nosiz tovushlardan, ba'zan alohida so'zlar yig'indisidan iborat bo'lishi mumkin. Hissiyotlari haddan tashqari sodda bo'lib, fiziologik xohishlar bilan bog'liqdir. Xursandchiliklari, qoniqishlarining asosida o'zlarining to'qligi, turar joyining issiqligi, patologik intilishlarini qondirish bo'lishi mumkin (jinsiy o'z-o'zini qondirish bafmoqlarini so'rish, yeb bo'lmaydigan narsalarni chaynash). Xafagarchiliklari esa sovuq, ochlik, og'riqdan bo'lishi mumkin. O'zlarining xursandchiliklarini harakat, qichqirish, mimika harakatlari bilan namoyon etsalar, xafagarchiliklarini esa qaysarlik, o'z tana organlarini jarohatlash bilan ko'rsatishlari mumkin. O'g'ir darajadagi aqli zaiflikning nisbatan yengilroq turlarida ijtimoiy hislarning saqlanganligini ko'rish mumkin. Bunday xislatlarni ularni boqadigan kishilarga birmuncha bog'lanib qolganliklarida, maqtaganida ularning xursand bo'lishlarida ko'rish mumkin. Ularning umumiy kayfiyatlari goh befarq, goh bo'shanglik va xursandchilik bilan ifodalanishi mumkin. Harakat tizimlarining haddan tashqari kambag'alligi natijasida hatto yurish va tik turish malakalari ham buzilgan bo'ladi. Faoliyatlari deyarli ko'zga tashlanmaydi. O'zlariga xizmat qilish malakalari shakllanmagan. Xulqlari asosan ularning o'z talablarini qondirish bilan bog'liq. Ba'zilar bir xildagi stereotip harakatlar qiladilar.

#### Adabiyotlar:

1. V.S.Rahmonova. Maxsus pedagogika - T.: G'afur G'ulom. 2005.
2. П.А.Якунин, В.П.Ермаков Основы тифлопедагогика. М,2000
3. Д. Султонова Тифлопедагогика. Маърузалар матни. -Т., 2011
4. Shoumarov G'. B., Mamedov K. "aqli zaif bolalar psixologiyasi". Toshkent: "O'qituvchi", 1998.
5. "Специальная педагогика". под ред. Н. С.Назаровой Москва: "Владось", 2003
6. www. Ziyonet